



ORIENTAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES

journal homepage:

<https://www.supportscience.uz/index.php/oiss>



URGENT ISSUES OF EDUCATING PATRIOTIC YOUTH IN THE ERA OF GLOBALIZATION

Ilkhom I. To'xtanazarov

Senior Lecturer, Associate Professor, Reserve Major

Department of Military Education, Faculty of Military Education

Fergana State University

ABOUT ARTICLE

Key words: Globalization, Youth Education, Patriotism, National Identity, Moral Values, Spiritual Development, Societal Challenges, National Culture, Global Processes, Modernity vs. Tradition.

Received: 30.05.25

Accepted: 01.06.25

Published: 03.06.25

Abstract: In the current era of globalization, young people face various challenges, particularly in maintaining their national identity while adapting to global cultural and social influences. The rapid advancement of global processes is significantly altering traditional values and cultural identities, often leading to conflicts between modernity and tradition. This paper examines the pressing issues related to the upbringing of patriotic youth in the context of globalization. The analysis emphasizes the importance of instilling spiritual and moral values in young people from an early age, ensuring they can navigate the complexities of the modern world while staying connected to their national roots. Through a review of sociological research and governmental initiatives, this study explores the role of national culture and values in shaping the personal and social development of youth. The paper also highlights the necessity of promoting patriotism, fostering loyalty, and ensuring the development of a morally and spiritually enriched generation that can withstand the pressures of modern global challenges.

GLOBALASHUV DAVRIDA VATANPARVAR YOSHLARNI TARBIYALASHNING DOLZARB MASALALARI

Ilhom I. To'xtanazarov

Dotsent, zahiradagi mayor

FarDU harbiy ta'lif fakulteti uslubiy tayyoragarlik sikli katta o'qituvchisi

МАҚОЛА HAQIDA

Kalit so'zlar: Globallashuv, Yoshlarni tarbiyalash, Vatanparvarlik, Milliy o'zlik, Ma'naviy qadriyatlar, Ruhiy rivojlanish, Ijtimoiy muammolar, Milliy madaniyat, Global jarayonlar, Zamonaviylik va an'anaviylik.

Annotatsiya: Hozirgi globallashuv davrida yoshlar milliy o'zligini saqlab qolish va jahon madaniyati bilan uyg'unlashish o'rtasida ko'plab qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar. Global jarayonlarning tez rivojlanishi an'anaviy qadriyatlarni va madaniyatni sezilarli darajada o'zgartirib, zamonaviylik va an'anaviylik o'rtasida ziddiyatlarga olib kelmoqda. Ushbu maqola globallashuv davrida vatanparvar yoshlarni tarbiyalash bilan bog'liq dolzarb masalalarni tahlil qiladi. Tadqiqot yoshlarni ma'naviy va axloqiy jihatdan tarbiyalashning ahamiyatini, ularni milliy ildizlariga bog'lab, zamonaviy dunyoning murakkabliklarini to'g'ri tushunishlariga yordam berishni ta'kidlaydi. Sotsiologik tadqiqotlar va hukumatning tashabbuslari asosida amalga oshirilgan tahlil milliy madaniyat va qadriyatlarning yoshlarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishidagi o'rnini ko'rsatadi. Shu bilan birga, vatanparvarlik, sadoqatni targ'ib qilish va yoshlarni ma'naviy barkamol avlod sifatida voyaga etkazish zarurligini ta'kidlaydi.

АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ ВОСПИТАНИЯ ПАТРИОТИЧНОЙ МОЛОДЕЖИ В ЭПОХУ ГЛОБАЛИЗАЦИИ

Ильхом И. Тохтанизаров

Старший преподаватель

кафедра военного образования

факультет военного образования

Ферганского государственного университета, доцент, майор запаса

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Глобализация, Образование молодежи, Патриотизм, Национальная идентичность, Моральные ценности, Духовное развитие, Социальные проблемы, Национальная культура, Глобальные процессы, Современность против традиций.

Аннотация: В эпоху глобализации молодежь сталкивается с различными проблемами, особенно в вопросе сохранения своей национальной идентичности при адаптации к глобальным культурным и социальным влияниям. Быстрое развитие глобальных процессов значительно изменяет традиционные ценности и культурные идентичности, часто приводя к конфликтам между современностью и традицией. В статье рассматриваются актуальные проблемы воспитания патриотичной молодежи в контексте глобализации. Анализ подчеркивает важность внедрения духовных и моральных ценностей в

молодежь с раннего возраста, что позволит им ориентироваться в сложностях современного мира, оставаясь при этом привязанными к своим национальным корням. Исследование через обзор социологических исследований и правительственные инициативы анализирует роль национальной культуры и ценностей в формировании личностного и социального развития молодежи. Также рассматривается необходимость продвижения патриотизма, формирования верности и обеспечения развития морально и духовно обогащенного поколения, которое сможет выдержать давление современных глобальных вызовов.

Ma'lumki, bugungi kunda insoniyat turli xildagi har qanday olamshumul voqealarni tezda o'zlashtirib, tezda unutadigan, o'tkir geosiyosiy – ommaviy hodisalar jarayoni jadal sur'atlarda rivojlanib, bir davlatni ikkinchisiga hushyor bo'lishga da'vat etadigan davrda yashamoqda. Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, bu davr texnogen va siyosiy globallashuvning eng yuqori darajasi deb izohlanmoqda. Ana shunday globallashuv jarayonida dunyodagi jamiki xalqlar hayotida tushunib bo'lmaydigan, ularning necha asrlar damida o'z tarixida rivojlangan milliy madaniyatning asl ko'rinishlarini, uning jozibasi va go'zalligini o'zgartirib yuboradigan, xalqqa yot bo'lgan odat va ko'nikmalar paydo bo'lmoqda. Chunki an'anaviylik va zamonaviylik o'rtasidagi kurash jamiyat a'zolarini har xil tomonlarga etaklab ketayotganining guvohi bo'linmoqda. O'z-o'zidan ko'rini turibdiki, Yangi O'zbekiston ham dunyoda yuz berayotgan ana shunday an'anaviylik va zamonaviylik o'rtasidagi ziddiyatlardan chetda tura olmaydi. Chunki hozirgi paytda hammaga ma'lumki, er yuzi aholisi siyosiy, iqtisodiy, madaniy sohalarda bir-biri bilan aloqadorlikda va o'zaro manfaatdorlikda rivojlanmoqda. Tabiiyki, bunda qo'shnichilik munosabatlari asosiy o'rin tutadi va o'z o'rniда buning ijobiylar salbiy jihatlari ko'zga tashlanadi. Shu o'rinda globallashuv jarayonining dunyo mamlakatlari iqtisodiyoti, siyosati, madaniyati va ma'naviyatiga o'tkazishi mumkin bo'lgan ijobiylar salbiy ta'sirining ko'rinishlarini mashhur hind davlat arbobi Mahatma Gandining quyidagi so'zlari orqali ifodalash mumkin: "Men uyimning darvoza va eshiklarini doim mahkam berkitib o'tira olmayman, chunki uyimga toza havo kirib turishi kerak. Shu bilan birga ochilgan eshik va derazalarimdan kirayotgan havo dovul bo'lib uyimni ag'dar-to'ntar qilib tashlashi, o'zimni esa yiqitib yuborishini ham istamayman" [1]. Maxatma Gandining uzoq yillar oldin aytgan yuqoridagi fikridan hozirgi dunyoda kechayotgan "globallashuv" jarayonining mohiyatini anglab olish mumkin. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, globallashuv jarayoni stixiyali tarzda yuzaga kelgan

hodisalar oqibati emas. Bunday murakkab jarayon u yoki bu shaklda deyarli jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida mavjud bo‘lib, faqat bugungi kunga kelib, ijtimoiy-siyosiy va texnologik taraqqiyot ta’siri natijasida uning mohiyati o‘zgacha ko‘rinishga ega bo‘ldi. Mana shunday tahlikali davrlarda yoshlarning o‘z yo‘lini adashmasdan to‘g‘ri topib olishi uchun ularni yoshligidan ma’naviy tarbiyasiga alohida e’tibor qaratmoq zarur. Hammaga ma’lumki, ma’naviy tarbiya deganda, insonning har tomonlama komillikka erishuvi tushuniladi va vatanparvarlik g‘oyasi bu tushunchaning o‘zagini tashkil etadi.

Hozirgi paytda yuqorida tilga olinganidek, globallashuv davrida mana shunday jarayonlardan adashmay, og‘ishmasdan to‘g‘ri yo‘lni tanlash o‘ta muhim jarayon hisoblanadi. Milliy madaniyat va ma’naviy qadriyatlar shaxsning hayot mazmunini, ma’naviy yaxlitlikni asrab qolishi, o‘z-o‘zini anglay bilishi va turmush tarzini belgilab beruvchi asosiy manba sifatida jamiyat va shaxs uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lishi zarur. Tadqiqotchi I.Ponomaryova bu xususda oliy ta’lim muassasalari talabalar o‘rtasida olib borgan sotsiologik tadqiqotlari shuni ko‘rsatadi, tadqiqotda ishtirok etgan 87% talabalar OAV va internet orqali kirib kelayotgan g‘arbona yurish – turish, an’ana va qadriyatlar tobora o‘rnashib qolayotganini, yoshlarning aksariyati xorijiy kanallarda berilayotgan turli xil kinofilmarni tomosha qilishga ishqiboz ekanini, ularda bunday ehtiyojlarning ortib borayotganini shu bilan birga, yoshlar orasida milliy qadriyatlar va an’analarga bo‘lgan munosabat o‘zgarayotganini ko‘rsatib bergen [2]. Shuni aytish joizki, yoshlar orasida yuz berayotgan bunday salbiy holatlar uchun globallashuv jarayoni “aybdor” ham “javobgar” ham emas. Aksincha, bu ko‘proq sub’yektiv omillarga bog‘liq bo‘lib qolmoqda. Shu sababli ham mazkur jarayonning tomoshabinlari sifatida qarsak chalib o‘tmasdan, milliy mentalitetga yot bo‘lgan madaniyatlarni targ‘ib qilishni chegaralash zarur.

Jamiyat oldidagi muhim ustuvor vazifalarni ichida albatta, yoshlarda vatanparvarlikni targ‘ib qilish, sadoqatli avlodni voyaga etkazish vazifasi ham alohida ahamiyat kasb etadi. Jamiyatning rivojlanganlik darajasi, hozirgi globallashuv davrida ushbu yo‘nalishdagi turli g‘oyaviy tahdidlar va mafkuraviy xurujlarni ilmiy tahlil qilishda O‘zbekiston Prezidenti Sh. Mirziyoevning asarlari, ko‘plab ma’ruza va chiqishlaridagi mamlakatning yangi qiyofasini yaratish, demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishda ma’naviy omillarga alohida ahamiyat qaratish, ular asosida tarbiyalangan ma’naviy barkamol avlodni voyaga etkazish, ularda xalqning ezgu intilishlariga sodiqlikni shakllantirish haqidagi fikr-mulohazalari nazariy-metodologik asos bo‘lganini alohida qayd etish lozim.

2022 yil 28 yanvarda Prezidentning Yangi O‘zbekistonni yanada rivojlantirish bo‘yicha PF-60 bilan tasdiqlangan 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan “Yangi taraqqiyot strategiyasi” to‘g‘risidagi Farmoni va uning asosida qabul qilinayotgan bir qancha me’yoriy hujjatlar

ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va soha rivojini yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risidagi qarori eng muhim va tayanch metodologik hujjatlardir. Ayni paytda, Prezident Shavkat Mirziyoyevning “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”, “Taqnidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak” [3] kabi asarlari, jamiyat taraqqiyotining ma’naviy-ma’rifiy sohalariga oid boshqa qaror va farmonlari ham ushbu ishning metodologik asosi hisoblanadi.

Bugungi kunda vatanparvar ma’naviy barkamol yosh avlodni tarbiyalash, bugungi globallashuv davrining talablariga mos va tahdidlarga bardosh bera oladigan yoshlarni voyaga etkazish bilan bog‘liq masalalar tahliliga bag‘ishlangan asar va tadqiqotlar mamlakatda ushbu yo‘nalishda ilmiy izlanishlar olib borayotgan olim va mutaxassislar faoliyatining tarkibiy qismiga aylangan deyish uchun barcha asoslar bor. Mamlakatda mustaqillik yillarida amalga oshirilayotgan yoshlarga doir faoliyat bilan bog‘liq masalalar tahliliga bag‘ishlangan tadqiqotlar orasida ushbu tadqiq etilayotgan mavzga eng yaqinlari sifatida Z. Qodirova, E. Bobomurodov, M. Yuldashev, S. Jo‘raev, G. Tulenovaning izlanishlari va ilmiy ishlarini alohida ta’kidlash lozim. Mamlakatda asosiy kuch hisoblangan yoshlar qatlami, ularning hayoti va faoliyatiga doir ayrim masalalar N.Temirova, Sh.Ermatov, T.Qurbanov, R.Qurbanov, D.Raximova kabi tadqiqotchilarining nomzodlik dissertatsiyalarida o‘z ifodasini topgan [4]. Xullas, navqiron va har ishga qodir yoshlar va ularning jamiyatdagi o‘rni, hayoti hamda faoliyati bilan bog‘liq turli masalalar respublikaning juda ko‘plab salohiyatli olim va mutaxassislar tomonidan o‘rganilmoqda, ularning xilma-xil jihatlari to‘g‘risida ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda. Lekin mamlakatda mustaqillik yillarida amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida yoshlarda vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish bilan bog‘liq ijtimoiy-falsafiy masalalar maxsus tadqiqot ob‘yekti bo‘lmagan. Bu esa, o‘z navbatida mazkur yo‘nalishda maxsus tadqiqot olib borish hamda tegishli nazariy xulosalar chiqarish va amaliy takliflar tayyorlash zarurligidan dalolat beradi.

Ushbu yo‘nalishda xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi shundan dalolat beradiki, turli mamlakatlarda vatanparvar, barkamol avlodni tarbiyalash, turli tajovuzkor tahdidlarga chidam bilan bardosh beradigan yoshlarga xos xususiyatlarni shakllantirishga doir tadqiqotlar bugungi G‘arb dunyosining etakchi ilmiy markazlari va oliy ta’lim muassasalarida, jumladan, AQShdagagi V.Vilson xalqaro tadqiqot markazi (Woodrow Wilson International center for scholars, Washington), Yel universiteti, Garvard, Kolumbiya universitetlari, Sharq va Afrika tadqiqotlari maktabi (SOAS, Angliya), Gumbold universitetining Yevropa etnologiyasi instituti (Germaniya), Fransiyadagi Sarbonna universiteti, Institute of Central Asia (Fransiya), Parij Ijtimoiy fanlar Oliy

maktabi (EHESS, Fransiya), Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti, Rossiya Fanlar akademiyasining Sharqshunoslik, Falsafa hamda Sotsiologiya institutlari (Rossiya) va boshqa shu kabi ilmiy markazlarda olib borilmoqda. Nafaqat Osiyo va Sharq ilm-fani, balki butun jahoning etakchi ilmiy markazlari va OTMlari qatoriga kiruvchi Institute of Academy for study of the modern international relations Europe and Asia (Xitoy), Tokio universiteti qoshidagi Osiyo va Afrika madaniyati va tilini o‘rganish tadqiqot instituti (Research Institute for Languages and Cultures of Asia and Africa at the Tokyo University of Foreign Studies), Asian Strategy and Leadership Institute (Malayziya) bilan birga, Janubiy Koreyadagi Osiyo madaniyatini tadqiq etish instituti (Asia Culture Research Institute, Hindistondagi J.Neru universiteti Markaziy Osiyoni tadqiq etish xalqaro munosabatlar markazi (Central Asian Studies, School of International Studies, Jawaharlal Nehru University) kabilarda olib borilayotgan izlanishlarda ham biz tahvil qilayotgan mavzuga doir qimmatli natijalarga erishilgan [4. 113].

Izlanishlar shuni ko‘rsatmoqdaki, yoshlarning vatanparvarlik tuyg‘usini oshishiga bugungi kunda ularning ma’naviy immunitetini shakllantirish tadbirlari alohida ahamiyat kasb etib, yuksak axloqiy madaniyatni talab etuvchi ijtimoiy-ma’naviy voqelik hisoblanadi. U yosh insonning shaxsi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, muayyan g‘oyaviy tarbiya va axloqiy madaniyat uyg‘unligini taqozo etadi. Tahdidbardoshlik xususiyatiga ega bo‘lgan yosh avlod vakili, avvalo, ona yurtining, xalqining tarixi va taqdiriga chuqur hurmat bilan qaraydigan, Vatan manfaatlari yo‘lida fidoiylik namunalarini ko‘rsatishga qodir bo‘lgan yoshlardan biridir. Qolaversa, Vatanga, xalqqa bo‘lgan hurmat, muhabbat, ishonch tuyg‘usi asosida shakllanuvchi tahdidlarga bardoshli bo‘lish muayyan milliy manfaatlar, umumiy maqsadlar asosida shakllanib, yoshlarning qalbidan chuqur o‘rin oladi, faoliyatiga ta’sir qilib, ularni mas’uliyatli vazifalarni bajarishga safarbar etib turadi. Bundan tashqari, yoshlarning tahdidlarga bardoshliligi ayni paytda ularning o‘z ishiga mas’uliyat bilan qarashi, vatanni ko‘z qorachig‘iday asrashi, ilm-fan cho‘qqilarini sari intilishi kabilar uchun muayyan tayanch omil bo‘lishi ham mumkin. Bularning barchasi Avesto zamonidan boshlab, Sharq va G‘arb ijtimoiy-falsafiy tafakkurida aks etgan purma’no fikrlar, mutaffakkirlarning asarlari Suqrot, Platon, Aristotel, Konfusiy, Buxoriy, Termiziy, Xorazmiy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Abu Homid G‘azzoliy, Aziziddin Nasafiy, Jaloliddin Rumiy, Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband, Nizomulmulk, Amir Temur, Alisher Navoiy kabi atoqli allomalarining g‘oya va ta’limotlarining bugungi yoshtar tarbiyasiga o‘ziga xos ta’siri borligidan dalolat beradi. Bugungi kunda nafaqat zamonaviy qarashlar, balki ana shunday mutaffakkirlarning g‘oya va qarashlarini o‘rganish va ularning asarlaridagi fikr va qarashlarini keng targ‘ib etish imkonini beruvchi izlanish va tadqiqotlarga ehtiyoj ortib borayotgani ham aslo bejiz emas. Bu esa, o‘z navbatida, axborot almashinushi jadallahshuv, globallashuv jarayonlari

tinimsiz yangilanib borayotgan bugungi davrda ana shu zamonga mos va tahdidlarga chidamli yoshlarni voyaga etkazish ehtiyoji ijtimoiy zaruratga aylanib borayotganidan dalolat beradi.

Demak, globallashuv jarayonida yuqorida qayd etilgan muammolarni hal etishga qaratilgan bir necha taklif va xulosalarni ilgari surish mumkin:

- jamiyatning barcha qatlamlari, xususan, yoshlar ongida taraqqiyotga xizmat qiluvchi an'anaviy va zamonaviy ijtimoiy-madaniy qadriyatlarni shakllantirish;

- yosh avlodni milliy o'zlikni anglash, tarixiy tafakkurni shakllantirish va milliy mustaqillik g'oyasi asosida tarbiyalash;

- ta'limda ilg'or texnologiyalarni amalda qo'llagan holda, jamiyatga kirib kelayotgan yangicha madaniyat va qadriyatlarni anglash, yoshlar ongida ularga qarshi tura oladigan kuchli mafkuraviy immunitetni shakllantirish;

- olimlar tomonidan globallashuv jarayonining tendensiyalarini hisobga olgan holda, xalqning uzoq ming yillik milliy qadriyatlarni himoya qilish strategiyasini ishlab chiqish;

- yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ta'lim muassasalarida ma'nviy-ma'rifiy tadbirlarning sifatini oshirish [5. 115].

Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tizimi quyidagi tuzilmalarni qamrab oladi:

ta'lim-tarbiya jarayonining eng muhim va asosiy bo'g'ini bo'lgan bolalar bog'chasidan boshlab ijtimoiy-ma'naviy ahamiyatga molik qadriyatlarni, Vatanga muhabbat va sadoqat ruhini shakllantirish hamda rivojlantirishga qaratilgan maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim maktablari, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi va oliy ta'lim muassasalarini;

ommaviy va harbiy-vatanparvarlik ishlarini amalga oshiradigan davlat va nodavlat tashkilotlari, mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlari, Qurolli Kuchlar tuzilmalari, mudofaa ishlari boshqarmalari, harbiy qismlar va muassasalar, huquq- tartibot organlari, faxriylar kengashlari, O'zbekiston yoshlar ittifoqi tuzilmalari va boshqa tashkilotlar [5].

Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ob'yektlari millati, tili, jinsi, ijtimoiy mansubligidan qat'i nazar, barcha yoshlardan, xususan, quyidagilardan iborat bo'ladi:

- maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilaridan;

- umumiy o'rta ta'lim muassasalari, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'quvchilari va oliy ta'lim muassasalari talabalaridan uyushmagan yoshlardan;

- tashkilot va korxonalarda faoliyat olib borayotgan yoshlardan [6].

Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning asosiy tamoyillari mazkur jarayonning ilmiy jihatdan asoslangani, uning muntazamligi, ta'lim-tarbiya va amaliyotning o'zaro uyg'unligi, tarixiylik va zamonaviylikning uzviy bog'liqligi bilan ifodalanadi va quyidagilardan iborat bo'ladi:

ilmiylik; tarixiylik; aniqlik va tezkorlik; muntazamlik; faollik; ta’lim-tarbiya ishlarining uyg’unligi; tarbiya jarayonining izchilligi; vatanparvarlik tarbiyasida erishilgan ijobiy natija va yutuqlarga tayanish tamoyillari.

Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash usullari – yoshlarda zarur hayotiy bilim, ko’nikma, mahorat va mustahkam irodani, jumladan, yuksak ma’naviy-axloqiy, va fuqarolik fazilatini shakllantirishga qaratilgan, ularning ongi, ruhiyati va faoliyatiga ta’sir ko’rsatadigan usul va uslublarni anglatadi.

Quyidagilar yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning asosiy usullaridan hisoblanadi:

ishontirish; mashq qildirish va mustaqil ishlash; kuzatish; rag’batlantirish; o’rnak ko’rsatish, shaxsiy namuna va boshqalar [7].

Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash turli shakllarda, jumladan, ilmiy, amaliy anjumanlar, savol-javob kechalari, kitobxonlik, elektron o’yinlar, mashhur kishilar bilan uchrashuvlar tarzida va boshqa shakllarda tashkil etiladi va ular ma’naviy-ma’rifiy ishlarning rang-barangligini ta’mindaydi;

kitobxonlikni keng targ’ib etish, jamiyatda yuksak ma’naviyatni qaror toptirishda badiiy asarlarning roli va ahamiyatini yoshlar ongiga singdirish;

yoshlarning o’z tanlagan kasbini puxta egallashi va etuk mutaxassis bo’lib etishishi uchun yaqindan ko’maklashish;

milliy mafkuraga zid bo’lgan yot g’oyalarga qarshi tanqidiy qarash va mafkuraviy immunitetni, o’ziga ishonch, hushyorlik va ogohlik tuyg’ularini mustahkamlash;

yoshlarda faol hayotiy pozitsiya va o’zining mustaqil fikr-mulohazalarini aniq bayon eta olish, mas’uliyatni his etish, qat’iy tartib va intizomga rioya qilish fazilatlarini shakllantirish, ularni qat’iyatl bo’lishga o’rgatish.

Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning ustuvor shakllarini amalda qo’llash bo‘yicha umumiyl masalalarni ko’rib chiqish lozim. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning usullari: ishontirish; mashq qildirish va mustaqil ishlash; kuzatish; rag’batlantirish; o’rnak ko’rsatish va shaxsiy namuna deb ko’rsatilgan. Shunga muvofiq ravishda tegishli yo’l-yo’riqlar belgilab berilgan.

Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash turli shakllarda, jumladan, ilmiy-amaliy anjumanlar, savol-javob kechalari, kitobxonlik, o’yinlar, mashhur kishilar bilan uchrashuvlar tarzida va boshqa shakllarda tashkil etiladi. Ular ma’naviy-ma’rifiy ishlarning rang-barangligini ta’mindaydi, pirovard natijada jamiyatda soglom ijtimoiy-ma’naviy muhitni shakllantirishga xizmat qiladi. Bunda quyidagi shakllar ustuvor ahamiyatga ega bo’ladi:. Ushbu shakllar va ularni tashkil qilishga doir umumiyl masalalar quyidagilardan iborat [8]:

Ma’ruza o‘qish. Talaba yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jarayonida ma’ruza mashg‘ulotlari eng ahamiyatli usullardan hisoblanadi. Ma’ruza muayyan mavzu bo‘yicha ma’lumotlarni ilmiy-nazariy asoslarda o‘rgatish mashg‘ulotlaridan iborat. Tegishli o‘quv fanlarini o‘qitish va boshqa ta’lim-tarbiya masalalari bilan bog‘liq mavzular bo‘yicha ma’ruzalar o‘zining natijaviyligi bilan alohida o‘rin tutadi. Ular o‘quv jarayoni ma’ruzalar yoki ommaviy ma’ruzalar turlariga bo‘linadi. O‘quv jarayonida ma’ruzalar tegishli o‘quv dasturlariga muvofiq, ommaviy ma’ruzalar esa ma’lum tadbirlar davomida tashkil etiladi. Shunga qarab ular uchun ajratiladigan vaqt miqdori ham turlicha bo‘ladi.

Ma’ruzani tegishli soha mutaxassislari tomonidan olib boriladi. Ma’ruza so‘ngida zarur savol-javoblar o‘tkazish maqsadga muvofiq. Ma’ruzalar ularning tinglovchilari tarkibining, jumladan, yoshlarning bilim va tayyorgarlik darajasini hisobga olgan holda olib boriladi.

Savol-javob kechalari, yakka va jamoaviy suhbatlar. Ta’lim-tarbiyaviy maqsadlarga muvofiq ravishda har bir jamoadagi talaba yoshlarning bilim, ko‘nikma, malakalarni puxta egallab borishlarini ta’minalash uchun zarur muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish bilan bog‘liq masalalar yuzasidan o‘tkaziladi.

Bunday savol-javob kechalari, yakka va jamoaviy suhbatlar tegishli ma’lumotlardan ishonchli manbalar asosida xabardor hamda zarur tayyorgarlikka ega bo‘lgan, shu bilan birga, ishtirokchilarning ishonchi va hurmatini qozongan mutaxassislar tomonidan olib boriladi.

Zarur hollarda bunday tadbirlarni yakka yoki tegishli kichik guruuhlar bilan suhbatlar shaklida o‘tkazish haqiqiy ahvolni yaxshiroq o‘rganish imkonini beradi. Bu esa tegishli masalalarni hal etishning eng to‘g‘ri echimlarini topish va amalga oshirishga xizmat qiladi.

Kitobxonlik. Talaba yoshlarni tegishli yosh davri uchun mos bo‘lgan kitoblarni to‘g‘ri tanlashga va ularni o‘qish natijasida to‘g‘ri xulosalar chiqarishga o‘rgatib borish zarur. Ma’lumki, bolalar adapiyoti badiiy asarlarining har biri ma’lum yoshdagilar uchun mo’ljallangan bo‘ladi. Voyaga etgan yoshdagilar uchun badiiy asarlarda jiddiy hayotiy masalalar muallifning qarashlari asosida aks ettiriladi. Ma’lum bir asar to‘g‘risida uni o‘qigan turli yoshdagilari kitobxonlarning o‘zaro fikr almashishlari, tegishlicha bahs-munozaralari yoshlarning mustaqil fikrlash qobiliyatları o‘sishiga yordam beradi [9].

O‘yinlar. Yoshlar bilan o‘yin mashg‘ulotlarini tashkil qilishda quyidagilarni hisobga olish kerak. O‘yinlar turi ko‘p bo‘lib, ular bolalar o‘yinlari, katta yoshdagilar o‘yinlari, sport o‘yinlari, harakatli o‘yinlar, aqliy o‘yinlar va boshqalarni o‘z ichiga oladi. Bolalar o‘yinlari keng tarqalgan, turli xalqlarda turlicha va oddiy harakatli hamda aqliy o‘yinlarni o‘z ichiga oladi. Katta yoshdagilar o‘yinlari ko‘pincha kuchlilik, chaqqonlik, tezkorlik kabi harakatlarga asoslanib ishtirokchilarda shunday sifatlarni takomillashtirishga xizmat qiladi.

Sport o‘yinlari tegishli sport turlarini hosil qiladi va sportchilar tayyorlash, ularning sport mahoratlarini oshirishga qaratiladi. Harakatli o‘yinlar jismoniy chiniqish, chaqqonlik, epchillik, chidamlilik, kuchlilik, sog‘lomlik va boshqa sifatlarni shakllantirish va mustahkamlashga xizmat qiladi.

Aqliy o‘yinlar idrok qilish, tafakkur, tasavvur tezligi va aniqligi, mantiqiy fikrlash, qat’iyatlilik qobiliyatlarini rivojlantiradi. Shularga muvofiq ravishda har bir o‘yindan tegishli maqsadlar yo‘lida to‘g‘ri va unumli foydalanishga erishish uchun muayyan talablarga, eng avvalo, xavfsizlik qoidalariga hamda tegishli o‘yin qoidalariga rioya qilish shart.

Boy hayotiy tajribaga ega bo‘lgan harbiy xizmatchi va faxriylar, ilm-fan, madaniyat va sport sohalarida, turli musobaqa va tanlovlarda g’olib bo‘lgan shaxslar bilan uchrashuvlar. Bunday uchrashuvlarni tegishli yo‘nalishdagi tadbirlar, bayramlar, yirik sanalar va shu kabilar bilan bog‘liq ravishda o‘tkazish an'anaga aylangan. Bu uchrashuvlarga oldindan puxta va atroficha tayyorgarlik ko‘rish, zarur qulay sharoitlarni hamda tadbir ishtirokchilarini tayyorlash, tadbirni olib borish rejasini, taklif etilgan mehmonlarni kutib olish, boshlab borish, minnatdorchilik bildirish, kuzatib qo‘yish tartiblarini belgilash va to‘liq amalga oshirish lozim [9. 157].

Ilmiy-nazariy va amaliy konferensiyalar, seminar-treninglar, muayyan mavzuga bag‘ishlangan kechalar, babs-munozaralar, viktorinalar, davra suhbatlari.

Ilmiy-nazariy konferensiyalar biror sohadagi dolzarb masala, muammo, uning yechimlari hamda istiqboldagi yo‘nalishlar va vazifalarning ilmiy-nazariy asoslariga doir mavjud yangi ma’lumotlarni mutaxassislar ishtirokida muhokama qilish, xulosa va tavsiyalar ishlab chiqish maqsadida tashkil qilinadi. Odatda, konferensiya mavzusi tegishli ish rejalariga kiritilgan bo‘ladi. Konferensiyanı o‘tkazish uchun tegishli tartibda ishchi guruh tashkil qilinadi. U tomonidan ma’ruzachilar, ishtirokchilar belgilanadi, kun tartibi ishlab chiqiladi va ularga oldindan yetkaziladi.

Konferensiyada tegishli rahbar xodimlar, olimlar, mutaxassislar, amaliyotchilar ishtirok etishi lozim. Ulardan kimdir asosiy ilmiy ma’ruza, boshqalar qo‘shimcha ma’ruza va axborotlar bilan qatnashadi. Tegishlichka munozara, muzokaralar o‘tkaziladi va yakuniy qarorlar qabul qilinadi.

Yoshlar vatanparvarlik tarbiyasi bo‘yicha o‘tkaziladigan ilmiy-nazariy konferensiyalar mazkur masala bilan bog‘liq muammolar va ular yechimining ilmiy- nazariy asoslarini belgilashga xizmat qiladi.

Bu tadbirlarni tegishli soha va mavzu bo'yicha rahbar xodimlar, olimlar, mutaxassislar, amaliyotchilar ilmiy-nazariy konferensiyalari hamda talabalar, ta'lim oluvchilar, o'quvchilar ilmiy-nazariy konferensiyalari (pedagoglar rahbarligida) shakllarida tashkil qilish mumkin.

Amaliy konferensiylar biror dolzarb masala, muammoning amaliy jihatlarini o'rganish maqsadida tegishli rahbar xodimlar, olimlar, mutaxassislar, amaliyotchilar ishtirokida tashkil qilinadi. Odatda, konferensiya mavzusi tegishli ish rejalariga kiritilgan bo'ladi. Konferensiyanı o'tkazish uchun ma'lum tartibda ishchi guruh tashkil qilinadi. U tomonidan ma'ruzachilar, ishtirokchilar belgilanadi, kun tartibi ishlab chiqiladi va ularga oldindan yetkaziladi.

Konferensiada kimdir asosiy axborot, boshqalar qo'shimcha axborotlar bilan ishtirok etadi. Tegishlicha muhokama, munozara, muzokaralar o'tkaziladi va yakuniy qarorlar qabul qilinadi.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. M. Gandhi. <https://bigasia.ru> 2019. 20.06.
2. F.Jalilova. Jamiyat va boshkaruv jurnali, – Toshkent. 2010. 1 coh. – B. 134.
3. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini bирgalikda barpo etamiz. – Toshkent, O'zbekiston. 2016.; Mirziyoyev Sh. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent, O'zbekiston. 2017.
4. Abdunosirova X.E. Yoshlarda tahdidbardoshlikni shakllantirish: tahlil va talqin dialektikasi. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Navoiy. 2021. – B. 112.
5. Bahrom Irzayev. Turkiston jadidlarining ko'mak tashkiloti. –T.: Toshkent islom universiteti nashriyot matbaa birlashmasi. 2016. – B. 195.
6. Baxrom Irzaev. O'zbek yoshlari va xorijiy ta'lim. – T.: Akademnashr. 2018. – B. 206.
7. Karimov N. Farg'ona jadidlarining sarvari // Andijon, Vodiynoma. 2016. №1. – B.70-74.
8. Begali Qosimov. Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoiylik. – Toshkent: Ma'naviyat. 2002. – B. 153.
9. Begali Qosimov. Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoiylik. – Toshkent: Ma'naviyat. 2002. – B. 155.
10. Mirziyoyev, Sh. (2017). Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Toshkent: O'zbekiston.
11. Ponomaryova, I. Sotsiologik tadqiqotlar. Oliy ta'lim muassasalari talabalarining globallashuv jarayoniga nisbatan qarashlari.